

**AMIR TEMUR QO'SHINIDAGI MA'NAVIY MUHIT.
TEMIR INTIZOM: JAZO TURLARI.**

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
Tarix va Filologiya fakulteti Tarix yo'nalishi
3-bosqich talabasi Saydullayeva Iroda*

***Yuz ming otliq askar qilolmagan ishni
bir to'g'ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin
(Amir Temur)***

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temurning harbiy qo'shinidagi ma'naviy muhit, intizomiy tartib va jazo tizimi chuqur yoritilgan. Sohibqironning harbiy yurishlari faqat kuch bilan emas, balki askarlarning ichki tarbiyasi, axloqiy yetukligi va sadoqati bilan muvaffaqiyatli bo'lganligi dalillar bilan ko'rsatilgan. Maqolada “Temur Tuzuklari”, Sharafuddin Ali Yazdiy va Ibn Arabshoh kabi muhim manbalar orqali Temurning harbiy va siyosiy qarashlari yoritilib, adolat, jasorat va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan boshqaruv falsafasi tahlil qilingan. Shuningdek, intizomiy jazo turlarining adolatli va ogohlantiruvchi ta'siri, Temurning jasorat bilan bir qatorda muruvvatli siyosati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Temur Tuzuklari, Muqobila, Muqotala, ma'naviy muhit, Temir intizom, Yaso qonunlari, jinoyat va jazo.

KIRISH

Jahon tarixidagi buyuk siymolardan biri, Markaziy Osiyo xalqlarining iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan hamda ulug' davlat arbobi va sarkarda, fan va madaniyat homiysi sohibqiron Amir Temurning¹ qo'shinidagi muhit haqida o'z qarashlarimni ushbu maqolada bayon etaman. Amir Temur (Tamerlan) qo'shinidagi ma'naviy muhit ko'p jihatdan uning hukmronligi davridagi madaniy, diniy va siyosiy qarashlarga asoslangan edi. Temur qo'shinining ma'naviy muhitini quyidagi asosiy jihatlar orqali ko'rib chiqish mumkin: Harbiy ma'naviyat, Maqsadga erishish va adolat, Adolat va tenglik, Ma'naviy yetakchilik, Intizom va tartib va h.k.

Biz bu maqolada Sohibqironning qo'shini ichidagi ma'naviy muhit haqida so'z olib boramiz. Har bir inson qo'shin deganda ko'z oldiga qanday holat tasvirlaydi deb o'ylaysiz? Ushbu inson tasavvuriga keltiradigan holat shundayki unda qo'shinni o'ylaganda ko'z oldida jangga tayyorlangan, qator-qator tartibda saf tortgan askarlar, ularning kiyim-kechaklari, qurollari va jangovar uskunalari tasvirlanishi mumkin.

¹ “Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.12.1994 yildagi 630-son.

Askarlar bir-biriga yaqin va intizomli tarzda safda turishadi. Shuningdek, qo'shin tinchlikni saqlash yoki yordam berish vazifasini bajarayotgan holatlar ham tasvirlanishi mumkin. Lekin biz ushbu qo'shindagi ichki va ma'naviy muhiti u yerdagi holatni bir o'ylab ko'rmaganmiz. Shundek ushbu masalalarga yechim sifatida biz Sohibqiron Amir Temur bobomizning harbiy qo'shinidagi ma'naviy muhitini yoritib o'tamiz. Amir Temur ma'naviy dunyosi ilm-ma'rifat bilan boyitilgan, bu esa harbiy boshqaruvda ham yaqqol namoyon bo'lgan. Sohibqiron Amir Temur o'zining harbiy qo'shinlari va hukmronligi orqali tarixda katta iz qoldirgan shaxsdir. U nafaqat jangovar strategiyasi bilan, balki qo'shindagi askarlarning ma'naviy yetukligini ham yuqori baholagan. Sohibqiron qo'shinining muvaffaqiyati tarafi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, bu omillardan biri ma'naviy yetuklik hisoblanadi. Amir Temur davlat boshqaruvida ham qo'shin tarkibida ham adolatlik va mardlikni yoqlab chiqqan. Amir Temur qo'shindagi ma'naviy muhitida jangchilarini qat'iyat, jasorat, va sadoqatga targ'ib qilgan. Har bir jangda qo'shinning muvaffaqiyati faqatgina jangovar qobiliyatga emas, balki askarlarning ma'naviy kuchiga, bir-biriga ishonchiga, va umumiy maqsadga erishishga bo'lgan intilishiga bog'liq edi. Masalan bunga dalil sifatida Sharafuddin Ali Yazdiyning Amir Temurning insoniy Fazilatlariga Sohibruqon bildirgan fikrlari orqali misollar keltirilgan. Xususan, Amir Temur “axdni buzmoq mardlikdan emas”, -deb², amir Husaynning bir necha bor hiyonatiga qaramay, uning bilan sulh uchun kelgan yuzta nomdor amirlarga shavqat(ximmat) ko'rsatib, ularni o'ldirmagan.

Amir Temur o'zining siyosiy hokimiyatini mustahkamlash uchun ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarni muhim deb bilgan. U ko'plab madaniy va ilmiy markazlar, masalan, Samarqand va Buxoro kabi shaharlarda ilm-fan va san'atni rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan. Bu ma'naviy muhitda ilm-fan, san'at, va me'morchilikning o'rni katta bo'lgan.” Amir Temurning devoni munshiysi “kotib us sirr” Mavlono Shamsiddin bo'lib, u o'z davrining qozisi-yu, zamonasining fozili edi, insho xabarlarini tuzishda forsiy va arabiyda hohlagancha tasarruf yuritardi. Sohibquronning vafodidan so'ng unga turli xil taklif bilan so'zlashdi. Shundan so'ng u bu ishdan ya'ni adabiyot bisotidan o'zini yiroq tutdi. Shunda unga:”Chexralar shodlandi, sen ham shodlanmaysanmi?”.” Ishrat mayi sof bo'ldi sen ham ayshu- ishrat qilmaysanmi?”, dedilarn. U dedikim:”Mening qiymatimni biladigan odam bu dunyodan o'tdi va endi boshqalar xizmatida o'z hurmatimni ketkazmayman³, deb javob qaytargan edi.

"Temur Tuzuklari" (yoki "Temur Shaxsiy Qo'llanmasi") Amir Temurning siyosiy, harbiy va ma'naviy qarashlarini, shuningdek, uning boshqaruvining asosiy tamoyillarini aks ettiruvchi muhim manbadir. Bu asarda Temur o'z qo'shinidagi ma'naviy muhitni quyidagi jihat bilan yoritib berish mumkin. Jumladan, Sadoqat va

² Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Movarounnahr voqealari. -B. 179.

³ Ibn Arabshoh .Amir Temur tarixidan// Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. - B .24-35.

vafodarlik: Temur o‘z qo‘shinidagi askarlarga sadoqat va vafodarlikni eng muhim fazilatlardan biri sifatida ko‘rsatgan. U askarlari va amirlarining bir-biriga bo‘lgan muomala madaniyati, qo‘shindagi askarlar muloqotida o‘zaro hurmat, sadoqatiga katta e’tibor bergan va harbiy ma’naviyatni yuqori tutgan. "Temur Tuzuklari"da askarlarning bir-biriga nisbatan sadoqatli bo‘lishi va harbiy qo‘mondonlarga itoat etishi kerakligi ta’kidlanadi. Ibn arabshoh, askarlarni muxoraba maydonida ya’ni jang maydonida devlarga o‘xshatsa, ularning ma’naviy dunyosini esa maloikalarga qiyoslaydi. Ibn Arabshoh askarlarni jang maydonida shunday tasvirlar ekan ularni umumiy qilib turk janchilardan miboratligi, askarlarning ovozi na mamaqaldiraq tovushini na his qilardi, na sehr qoldiradi. Muqobilada ular husnda maloikalar misoli, muqotalada ular devlar kabidir⁴. Ushbu ibora ya’ni matnda shunday ma’no ketgandir: 1. "Muqobilada ular, husnda maloikalar, misollar": Bu qismda "maloikalar" (farishtalar) o‘zgacha, yuqori va pokiza mavjudotlarni anglatadi. Ular ma’naviy poklik, yaxshilik, va oliy fazilatlarni ramziy ravishda ifodalaydi. "Muqobilada" so‘zi bu farishtalarga nisbatan biror alternativ yoki o‘rinbosar holatini ko‘rsatadi. Demak, "husnda maloikalar" iborasi, odamlarning ma’naviy idealiga, yaxshilik va poklikka muqobil sifatida tasvirlanadi.

2. "Muqobilada ular, devlar kabi": Bu yerda "devlar" yovuzlikni, shaytonlikni yoki yomonlikni ramziy tarzda ifodalaydi. "Muqotalada" so‘zi esa biror narsaning "yopilishi" yoki "qoplanishi" ma’nosini anglatadi, ya’ni bu ibora orqali devlar yoki yovuz kuchlar bilan bog‘liq salbiy holatlar tushuniladi. "Devlar kabi" esa yomonlik va zulmni ifodalaydi. Yana shuni ta’kidlash joizki harbiy askarlar jangga devlar kabi qo‘rqmas, jangga kirishish dushman qanday yusinda ya’ni holatda bo‘lsa ham yengish tushunchasi yoritiladi.

Qo‘shindagi askarlar muloqotida o‘zaro hurmat, xushomallik, muomala madaniyatiga katta ahamiyat berilgan. "Tuzuklar"da "Navkarning begiga va bekning navkarga muomala qilish tuzugi"da navkarlarni beklar, beklar begiga muloqot madaniyati va bo‘ysunish odobi keltirilgan⁵. Sohibqiron harbiy qo‘shinni tashkil etishda har bir askarni nafaqat jangovar malakaga, balki axloqiy va ma’naviy jihatlariga ham o‘rgatgan. Temur o‘z askarlarini yuksak axloqiy me’yorlarga rioya qilishga, odamlar bilan yaxshi munosabatda bo‘lishga va o‘z yurtlarini himoya qilishga undagan.

Amir Temur askarlarni o‘z farzandlaridek ko‘rgan. Amir Temur harbiy qo‘shinda manaviy muhitni olsak yana bir bor, uning dushmanlariga va unga xiyonat qilganlarga rahmdil bo‘lgan. To‘g‘ri uni chet el malumotlarida yoki Amir Temur siymosini yuzaki tahlil qilgan shaxslar ham bo‘lgan va doim shundi bo‘lib kelishgan. Amir Temurni shavqatsiz yoki dushmanlariga va xiyonat qilganlarni qat’iy tartib bilan jazolagan deyishgan so‘zlarga ko‘zimish tushar. Bu holat davlatni ba’zan o‘z davrida katta siyosiy va harbiy yutuqlarga erishtiradi. Agarda biz manbalarga nazar tashlasak

⁴ Ibn Arabshoh .Amir Temur tarixi.1 kitob.-B.220.

⁵ Temur Tuzuklari.2020.-B.115-117.

1360-yildagi voqealarga nazar tashlasak: Sohibquronning rafiqasi O'ljoy Turxon og'ani Alibek Joniqurboniy 60 kun tutqunlikda burgaga to'la qorong'u xonada zindonband qilgan insondir. Ammo Sohibquron keyinchalik unga ko'p muruvvatlar ko'rsatgani yozilgan. Yana bir dalil sifatida “ Amir Huasyn menga deydi Sohibquron-asir tushib qolganidan keyin, unimng navkarlari va amirlari “Endi bizni o'ldiradi”, -deb gumon qilgan edilar.”....Axir ular askarlar-ku?- deb ularni avf etdim yana askarlik ishlariga tayinlandim⁶,-deydi. Ozarbayjonlik tarixchi T.Ataevning bayon etishicha, Ibrohim I iltifot bi'am “qilich va kafan” keltirib, o'zini qo'li deb bilganini extirom bilan bildirgani yozib o'tadi.Ushbu voqea Ibn Arabshoh ma'lumotiga tayanib tahlil qelganda:Amir Temur Darbanga kelganiga Ibrohim I uni ya'no sohibquronni ahlosini tinchlantirgan holda ,ko'tarinki ruhda kutib oladi.Ibrohim I Sohibquronni ismini xutbada o'qitib , odatga ko'ra sovg'a – salomlardan to'qqiztadan, qullardan esa sakkiztadan tortiq qiladi. Bu holat ya'ni qullar soning bitta kamligi sababi Sohibquronni qiziqtirib unga nega bundi qilganini so'raydi.Shayx Ibrohim”to'qqizinch o'zim,qurbonman”, -deb javob bergan.Amir Temur Ibrohim I ni ma'rifat aylab unga:”Yo'q ,sen mening farzandimsan va o'sha yerlarda mening xalifam va kishimsan”, deb unga qimmatbaho tuxfalar kiygizib o'z maqomida qoldirgan⁷.

Sohibqiron qo'shinlarida intizom juda yuqori bo'lgan. Har bir askar o'zining vazifasini, buyruqlarni va jangovar strategiyani yaxshi tushunib, qat'iy amal qilgan. Bu, o'z navbatida, ular orasida ma'naviy birlashuvni va jamoa ruhini shakllantirgan. Temur o'z davlatida qadimiy turk-mo'g'ul an'analari, udumlariga rioya qilganligi uchun uning davlatida Chingizxonning Yaso qonunlari ham huquq manbayi sifatida qo'llanilgan. Ammo jinoyat va jazo masalalarida Yasoga ham amal qilinganligini ko'rish mumkin. Jumladan, «Tuzuklar»da: «O'g'rilar xususida buyurdimki, ular qayerda bo'lmasin, kim tutib olsa, Yaso bo'yicha jazolansin»,deyiladi. Bu ba'zi hollarda Yaso normalari ham huquq manbayi sifatida amalda bo'lganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, harbiy qurilish masalalarida Yasodan qabul (retsepsiya) qilingan hukmlar ham yo'q emas. Masalan, sipohning yaroqjabduqdari va anjom-jihozlari tuzugi Yaso bilan bir xil talablarni qo'ygan⁸.Amir Temur saltanatida harbiy ishda yasoq – jazolash qonunlariga amal qilingan. Bunda oddiy sipohiydan tortib to amirlargacha bir xil qoida bo'lgan va temur intizomga amal qilingan.Intizomiy jazo turlariga misol qilib keltirsak :Ozarbayjonni idora qilib turgan amirzoda Mironshohni davlat ishlarini o'z holiga tashlab quygani uchun mansabidan olingan va yetti yillik yurishi chog'ida Temurning nabirasi

⁶ Temur Tuzuklari.2020.-B.50.

⁷ Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi.Ajoyib al-makdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari)/So'z boshi , arab tilidan tarjima va izohlarni U.Uvatov tayyorlagan.Ma'sul muxarrir A.O'rinboyev. Toshkent :Mexnat,1992.1-kitob .-B.148.

⁸ O. Chuboeva.O'zbekiston davlati va huquqi tarixi fanidan Ma'ruzalar matni. NAMANGAN-2011.-B.62.

Pirmuhammad Sulton Fors hokimi boshqa ruvidagi ishlarida yoʻl qoʻygan sustkashliklari uchun xuddi shunday jazoga tortilgan⁹.

Xulosa

Amir Temurning harbiy kuchi nafaqat jangovar salohiyatga, balki kuchli ichki tarbiya va maʼnaviyatga tayanardi. Sohibqiron askarlarini faqat jangchi sifatida emas, balki insoniy fazilatlarni oʻzlashtirgan yuksak axloqli shaxslar sifatida tarbiyalagan. Harbiy qoʻmondonlikda Temur oʻzbek va turkiy urf-odatlarga, shuningdek, Yaso qonunlariga asoslanib, qatʼiy tartib-intizomni joriy etgan. Maqolada keltirilgan tarixiy dalillar asosida aytish mumkinki, Amir Temur harbiy rahbarlikda maʼnaviy muhitga boʻlgan eʼtibor bilan tarixda oʻziga xos buyuk siymo boʻlib qolgan. Uning siyosiy muruvvati, askarlarni kechira olish qobiliyati, intizomiy jazolarda adolatli yondashuvi — zamonaviy harbiy va davlat boshqaruvi uchun ham dolzarb saboqdir. Temurning boshqaruv modeli — bu harbiy kuch va insonparvarlik uygʻunligining namunasi sifatida baholanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. “Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.12.1994 yildagi 630-son.
2. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Movarounnahr voqealari.
3. Ibn Arabshoh .Amir Temur tarixidan// Amir Temur va Ulugʻbek zamondoshlari xotirasida.
4. Ibn Arabshoh .Amir Temur tarixi. 1 kitob.
5. Temur Tuzuklari.2020.
6. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi.Ajoyib al-makdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari)/Soʻz boshi , arab tilidan tarjima va izohlarni U.Uvatov tayyorlagan.Maʼsul muxarrir A.Oʻrinboyev.-Toshkent :Mexnat,1992.1-kitob .
7. O. Chuboeva.Oʻzbekiston davlati va huquqi tarixi fanidan Maʼruzalar matni. NAMANGAN-2011.
8. Ahmedov .B .Sohibquron Temur.

⁹ Ahmedov .B. Sohibquron Temur .-B.23.